



O'zbekiston qonunchiligida korrupsiyaga qarshi kurash: muammolar va yechimlar

Fozilov Sardorbek Akmaljon o'g'li

Buxoro Davlat Universiteti

Siyosatshunoslik yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrupsiya har qanday jamiyat va davlat uchun katta muammo bo'lib, iqtisodiy rivojlanish, adolatli boshqaruv va ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi sabablari keltirib o'tiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashda shaffoflikni oshirish va huquqiy tizimni mustahkamlash muhimligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, davlat boshqaruvi, shaffoflik, qonunchilik, suiste'mollik, jazo va jarimalar, davlat xarajatlari va budget, jamoatchilik nazorati, korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi .

Abstract. This article explains why corruption is a major problem for any society and state, negatively affecting economic development, good governance, and social stability. It highlights the importance of increasing transparency and strengthening the legal system in the fight against corruption.

Keywords: corruption, public administration, transparency, legislation, abuse, penalties and fines, public spending and budget, public oversight, anti-corruption agency.



Kelajakni korrupsiyasiz qurish uchun,

bugundan boshlab kurashaylik.

Kirish. Hozirgi davrda dunyo miqyosida hal etishimiz lozim bo'lgan eng muhim global muammolarimizdan biri bu – korrupsiya muammosidir. Bu muammo dunyo davlatlarida iqtisodiy, ijtimoiy, hamda siyosiy jihatdan rivojlanishning asosiy kushandasi hamdir. Shu bois dunyo miqyosida unga qarshi kurash boshlanib, jahon siyosatining eng muhim masalalaridan biriga aylandi. Bu illat nafaqat rivojlanishga jiddiy to'siq bo'lib kelmoqda, balki yangicha islohotlar qilish va o'tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga ham bevosita tahdid tug'dirib kelmoqda. Yana shuni aytib o'tish joizki, agar bu muammo keng tarqalsa inson huquq va erkinliklari poymol bo'lishiga, jamiyatdagi shaxslarning rivojlanish muhitini buzilishiga olib keladi. Bu illat butun bir jamiyatni taraqqiyotiga to'siq bo'lib, davlatni ich- ichidan yemiradi va ayni shu sabab ko'plab davlatlar inqirozga yuz tutgan. Poraxo'rlik va korrupsiya o'zbek jamiyatining rivojlanishiga, xususan, demokratik yangilanish hamda modernizatsiyalash jarayoniga har jihatdan xalaqit bermoqda. Garchi bu masala uzoq yillardan beri Ommaviy axborot vositalarida (televideniya va matbuotda) ta'kidlanib, “qo'lga tushgan” amaldorlar namoyish etilib kelinayotganiga qaramasdan, sud, prokuratura, idora rahbarlari hamda fuqarolarning qon-qoniga singib ketgan feodalizm sarqitlari, ta'magirlik, byurokratiya jamiyatimiz hayotidan yo'qolib ketmayapti. Bu esa avvalo, jamiyatda adolatsizlik, aholini noroziligiga olib keladi va bu esa barcha sohalarda islohotlarning natijasiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi. Korrupsiya avj olgan mamlakatlardagi hukumat rahbarlari tomonidan davlat mablag'lari yeb yuborilmoqda, va bu hatti-harakatlar esa mehnatkash odamlarga haqli ravishda tegishli bo'lgan iqtisodiy o'sishning daromadlari va foydalarini olishlariga yo'l qo'ymayapti. Bunday hatti-harakatlar, aholining eng muhtoj qatlamlarini yanada yomonlashtirib, ularning hayot sifatini pasaytirmoqda.



Asosiy qism. Korrupsiya - bu davlat idoralari va xususiy sektorda hokimiyat yoki resurslardan noqonuniy va shaxsiy manfaatlar uchun foydalanish holatidir. Lotinchadan tarjima qilinganda bu soʻz “Corrumpere” – mansabdor shaxsning oʻziga ishonib topshirilgan vakolatlari va huquqlaridan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanishini bildiruvchi atamadir. Xalq tilida aytadigan boʻlsam korrupsiya, asosan, poraxoʻrlik yoki noqonuniy boylik orttirish bilan bogʻliq tushuncha sifatida ishlatiladi. Umuman olganda, mansabdor shaxslargina emas, balki, davlat tashkilotlarida ishlamaydigan fuqarolar ham korrupsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari boʻlishi, pora emas, balki, boshqa narsalar evaziga oʻz ehtiyoj va manfaatlarini ham amalga oshirishlari mumkin. Korrupsiya jamiyatning turli yoʻllar bilan oʻz iskanjasiga oladigan illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga toʻsqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Korrupsiyaga qarshi kurashish qadimgi davrlarda ham muhim vazifa boʻlgan va turli xalq va davlatlar oʻz ehtiyojlariga qarab turli usullarni qoʻllaganlar. Bobil va Assuriya xalqlari davlatni boshqarishda yuqori darajadagi masʼuliyatni taʼminlash uchun qatʼiy qonunlarni ishlab chiqqan. Hammurapi qonunlari kabi qonunlar korrupsiyaning oldini olish uchun asosiy huquqiy mexanizm sifatida ishlatilgan. Hammurapi qonunlarida davlatga qarshi ishlovchi rasmiylarga jiddiy jazolar belgilangan. Masalan, xizmatchilarni oʻz mansablarini suiisteʼmol qilganliklari uchun oʻlim jazosi kutardi. Qadimgi Afina siyosatida baʼzida davlat mansabdorlari oʻz manfaatlarini suiisteʼmollik qilish xavfi mavjud boʻlgan. Agar biror shaxs juda koʻp taʼsirga ega boʻlsa, uning oʻzi yoki uning tarafdorlari davlatni oʻz foydasiga aylantirishi mumkin edi. Ostrakizatsiya (haydash, chiqarib tashlash) orqali bunday shaxslar jamiyatdan ajratilgan va davlatga xavf solishi oldi olingan. Amir Temur davrida ham korrupsiya va poraxoʻrlik ogʻir jinoyatlar qatoriga kiritilgan va unga nisbatan juda qattiq jazo choralari qoʻllanilgan. Temuriylar davlatining asosiy qonunlari Temur tuzuklarida (Tuzukot) belgilangan boʻlib, unda davlat boshqaruvida adolat va halollik asosiy



tamoyillardan biri bo'lgan. Poraxo'rlik – Sudyalar, amaldorlar yoki harbiy boshliqlar pora olgan taqdirda, ular qattiq jazolangan, baʼzan oʻlim jazosi yoki butunlay mansabdan chetlatish va quvgʻin qilish amaliyoti qoʻllanilgan. Nohaq hukm chiqarish-agar qozilar yoki mansabdorlar pora evaziga yoki shaxsiy manfaat uchun adolatsiz qaror chiqarsa, ularga nisbatan shafqatsiz jazolar qoʻllangan. Baʼzi holatlarda bunday shaxslarning qoʻllari kesilgan yoki boshqalarga ibrat boʻlishi uchun ochiq joyda jazolangan.

Bunday harakatlarni oldini olish va ularga chora koʻrish maqsadida bizni Prezidentimiz tomonidan Oʻzbekiston Respublikasining **“Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi”**ga qoʻshilganligi bilan bogʻliq Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining **2017-yil 15-yanvardagi “Oʻzbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini tashkil etish toʻgʻrisida”**gi farmoni eʼlon qilindi.^[1] Ushbu Farmon korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish va davlat boshqaruvidagi islohotlarni yanada samarali amalga oshirishga qaratilgan edi. Farmonga binoan Oʻzbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini kuchaytirish maqsadida **Oʻzbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi**^[2] tashkil etildi. Bu agentlik davlat idoralarida va boshqa sektorlarda korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro miqyosda ham amalga oshirilishini taʼminlash uchun xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik^[3] oʻrnatildi. Oʻzbekiston xalqaro standartlarga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashishda oʻz tizimini takomillashtirishni maqsad qilgan. Farmona sosida davlat xarajatlari va byudjet^[4] tizimi shaffofligini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar koʻrildi. Bu davlat resurslarining notoʻgʻri sarflanishini oldini olish va jamiyatda ishonchni oshirish uchun muhim qadam boʻldi. Farmon orqali jamoatchilik nazorati^[5] va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashdagi faolligini oshirishga eʼtibor qaratildi. Fuqarolar va jamoat tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashda faol ishtirok etishlari kerakligi koʻrsatildi. Qonun boʻyicha Korrupsiyaga qarshi kurashishda qatʼiy jazo va jarimalar tizimi kuchaytirildi. Mansabdor



shaxslar davlat resurslarini shaxsiy manfaatlar uchun ishlatgan taqdirda ular jazo choralariга tortildi. **Eng yomon tomoni shundaki, davlat mablag`ini puxtalik bilan o`zlashtirgan amaldorning malakasi oshib boraveradi. Dastlab millionlarga, so`ng miliardlarga o`tadi. Bag`oyat mohirona o`maradiki, qonunni buzmaydi, balki uni chetlab, aylanib o`tadi (Ostap Bender iborasi).**<sup>[6]</sup> Har qanday davlatni taraqqiyotiga to`siq bo`luvchi, tanazzulga chorlovchi va jirkanch hayot sari yetaklovchi bir illat borkim bu ham - korrupsiyadir. Bu ishlar borgan sari palak otib boraveradi. Shunday firibgarlik va hiylalar qiladiki, qancha taftishlar qilinsa ham, aybini topish qiyin bo`ladi. Ayni shunday odamlar ham bor bu hayotda, lekin o`z aksini topgan yo`q hanuzgacha...

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 27-noyabrda **“korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to`g`risida”**gi farmonni imzoladi.^[7] Ushbu farmon asosi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, eng yuqori darajadagi qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijodiy obro`-e`tiborini oshirishga qaratilgan. Ushbu farmonning maqsadi, korrupsiyaga qarshi kurashda davlatni yanada samarali qilish, korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning yangi mexanizmlarini yaxshilashdir. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqqligini ta`minlash masalalari, korrupsiyaga qarshi kurashish bo`yicha hududiy kengashlarning asosiy vazifalari, davlat boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi standartlarni joriy etish va ularga rioya etilishini ta`minlash bo`yicha mexanizmlarini belgilash choralari ko`rildi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti **Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 5-mart sanasida Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig`ilishida** ishtirok etdi. Yig`ilishda yurtimizda korrupsiyadan holi muhit yaratish bo`yicha qilingan ishlarga baho berilib, kelgusi vazifalar belgilandi. Davlat mablag`ini maqsadsiz sarflash holatlariga barham berildi. Davlatimiz rahbari o`z nutqida korrupsiya islohotlar yo`lidagi eng katta to`siq va g`ov ekanini ta`kidladi. Shu bilan birga, yig`ilish davomida “mahalla



faollari, nuroniylar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san`at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar – umuman butun jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga **“Jamiyat tanasidagi saraton”** sifatida qarash kerak” – dedi Shavkat Mirziyoyev.^[8]

Muhokama va tahlil. 2024-yilda korrupsiyaga oid jinoyatlar sodir etish holatlarining kamayishiga erishildi. Xususan, 2024-yilda Respublika bo`yicha jami 6 898 nafar shaxs tomonidan **5 716 ta jinoyat** sodir etilgan bo`lib, 2023-yilga nisbatan korrupsiyaga oid jinoyatlar **“Hududgazta`minot”AJ, Suv xo`jaligi, mahalliy hokimliklar hamda bank sohasida** kamaygan. Biroq **Maktabgacha va maktab ta`limi, sog`liqni saqlash, kambag`allikni qisqartirish va bandlik** sohalarida korrupsiyaga oid jinoyatlar salmog`i yuqoriligicha saqlanib qolmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar:

Normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi: Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida 8 ta normativhuquqiy hujjat qabul qilindi. Jumladan, Manfaatlar to`qnashuvi to`g`risidagi qonun qabul qilinib, ushbu qonun talablarini bajarmaganlik uchun ma`muriy javobgarlik belgilandi. Sport sohasida javobgarlik kuchaytirildi: Jinoyat kodeksiga qo`shimchalar kiritilib, sport sohasida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. **“Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi”** ishga tushirildi: Prezident qarori bilan aholining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini oshirish maqsadida ushbu elektron platforma tashkil etildi.^[9] 2025-yil 5-martdagi yig`ilishda belgilangan yangi vazifalar: Korrupsiyaga qarshi kurashishning yangi tashabbuslari: Prezident Shavkat Mirziyoyev **55 ta aniq maqsadga yo`naltirilgan tashabbuslarni** ilgari surdi. Ular doirasida **5 ta qonun, 12 ta farmon va qarorlar** ishlab chiqilishi rejalashtirilgan. Maishiy korrupsiyaga qarshi kurash: Korrupsiyaviy jinoyatlarning 75 foizi tuman va mahallalarda maishiy korrupsiya shaklida sodir etilayotgani ta`kidlanib, bu borada chora-tadbirlar kuchaytirilishi belgilandi. Huquq-tartibot idoralari, asosan, korrupsiyani aniqlash va jazolash bilan ishlab, korrupsiyaviy



omillarni tag-tomiri bilan yo`qotadigan preventiv choralar e`tiborsiz qolayotgani qayd etildi. Shu bois Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining ish uslubi o`zgartirilishi belgilandi. Buning uchun, tajriba tariqasida **5 ta – Sog`liqni saqlash, Qurilish, Suv xo`jaligi vazirliklari, Neftgaz va Suvta`minot jamiyatlarining komplayens nazorati agentlikka o`tkaziladi.** <sup>[10]</sup> Ushbu chora-tadbirlar korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish va jamiyatda unga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan. O`zbekiston mustaqil bo`lgandan keyin, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi aniq bir qonunchilik tizimi mavjud emas edi. Shuning uchun ham korrupsiyani oldini olishga oid umumiy prinsiplar va davlat idoralarini faoliyatining shaffofligini ta`minlashga doir qo`shimcha choralar ko`rib chiqilgan edi. O`zbekistonda korrupsiyaga qarshi qonunchilikning rivojlanishi va takomillashtirilishi davom etmoqda. Bu jarayon bir qator muhim qonunlar, qarorlar, farmonlar va hujjatlar qabul qilinayotganidan ko`rishimiz mumkin.

Juda ko`p hadislarda nohaq boylik orttirish va undan foydalanishdan qaytarish bo`yicha aytib o`tilgan. Shundan kelib chiqadiki, har qanday davlat boshqaruvidagi shaxs bo`ladimi yoki bo`lmasam oddiy bir fuqaro bo`ldimi, kasb va sohasidan qat`iy nazar hammaga qonun va jazo birdir. Va ayni damda bu ishni qilayotgan davlat amaldorlari o`zlari xalqqa o`rnak bo`lish o`rniga, boshqa shaxslarni, fuqarolarni ishonchiga kirib olib, o`z mansabini suiiste`mol qilayotganlarni ko`rib turibmiz. Bunday shaxslar qonunni bila turib ushbu ishlarni qilishyaptimi, demak yoshlar ham bu ishni qilish tomon boraveradi. Shuning uchun mavqeyidan qat`iy nazar har bir shaxs halol va to`g`ri ishlay bilishi lozim, bo`lmasa bu shaxslar jazo olishga mahkumdir.

**Xulosa qilib aytadigan bo`lsak,** korrupsiyaga qarshi kurashish muammolari va ularni yechimlarini tahlil qilib o`tdik. Tahlillar shuni ko`rsatmoqdaki, korrupsiya yana bir boraytib o`tishimiz joizki, iqtisodiy rivojlanishga, ijtimoiy adolatga va davlat boshqaruvining samaradorligiga salbiy ta`sir ko`rsatadi. O`zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash bo`yicha qator islohotlar amalga oshirilgan bo`lsa-da, huquqiy tizimni



mustahkamlash, shaffoflikni oshirish va fuqarolik jamiyatining faolligini ta'minlash zarur. Davlat boshqaruvida raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish korrupsiyani kamaytirishda samarali usullardan biri bo'lib xizmat qiladi. Korrupsiyaning boshlanishi davlatimizdagi ayrim biramalparast hamda o'z manfaatlari yo'lida hech narsadan tab tortmaydigan rahbarlarimizdan boshlanadi. Bu balo va illatlardan qutilish barchamizning sharaflı burchimiz ekanligini tushunmog'imiz lozim. Agarda bu illat kuchayishi uchun sharoit yaratib bersak, o'zimiz uchun zulmatni ato etgan bo'lamiz!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, **PF-4932-son**, (2017-yil 15yanvar) (<https://lex.uz/>)
2. O'zbekistonning xalqaro me'yorlarga muvofiq o'z tizimini rivojlantirishi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik o'rnatilda. **BMTning narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurashish ofisi (UNODC)** sayti (<https://www.unodc.org/>)
3. 2017-yil 3-apreldagi Prezidentimizning **PF-4952-sonli farmoni** asosida. (<https://anticorruption.uz/>)
4. **O'RQ-886-son 25.12.2023** O'zbekistonning byudjet va davlat xarajatlarining shaffofligini ta'minlash masalasiga oid hujjatlar. (<https://president.uz/>)
5. **PF-200-son 27.11.2023** Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolar va jamoat tashkilotlarining ishtirokini oshirishga doir **farmonlar va qarorlar**. (<https://lex.uz/>)
6. Bu ibora **Ilf va Petrovning "12 stul"** asarining birinchi nashrning **birinchi qismida** qo'llanilgan (**1928-yil**).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, **27.11.2023 yildagi PF-200-son** (<https://lex.uz/>)



8. Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig`ilishidan
(<https://president.uz/oz/lists/view/7924>)

9. **2024-yilda** amalga oshirilgan ishlar, natijalar va ko`rsatkichlar.
(<https://anticorruption.uz/oz/article/2024-iilda-amalga-osirilgan-islarnatiza-va-krsatkichlar>)

10. Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig`ilishida belgilangan vazifalar
<https://president.uz/oz/lists/view/7924>